Abstract. This article analyzes the system of financing socially significant projects implemented by non-governmental non-profit organizations (NGOs) in Uzbekistan on the basis of state grants. The study examines existing problems in the grant allocation and monitoring processes, particularly the influence of the human factor, subjective evaluation, and bureaucratic barriers. It substantiates the potential of introducing an electronic grant system to improve the efficiency of public administration, ensure transparency, and expand the participation of civil society institutions. The results of the econometric analysis indicate a positive relationship between the state budget and the number of funded projects. The findings confirm that the digitalization of the grant system positively affects institutional efficiency.

Key words: state grants, NGOs, civil society, digitalization, electronic grant system, monitoring, public administration.

Аннотация. В данной статье анализируется система финансирования социально значимых проектов, реализуемых негосударственными некоммерческими организациями (ННО) в Узбекистане на основе государственных грантов. Рассматриваются существующие проблемы в процессах распределения и мониторинга грантов, в частности влияние человеческого фактора, субъективной оценки и бюрократических барьеров. Обосновываются возможности внедрения электронной системы грантов для повышения эффективности государственного управления, обеспечения прозрачности и расширения участия институтов гражданского общества. Результаты эконометрического анализа показывают наличие положительной взаимосвязи между государственным бюджетом и количеством профинансированных проектов. Полученные результаты подтверждают, что цифровизация системы грантов положительно влияет на институциональную эффективность.

Ключевые слова: государственные гранты, ННО, гражданское общество, цифровизация, электронная система грантов, мониторинг, государственное управление.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ushbu jarayonda NNTlar tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni davlat grantlari asosida moliyalashtirish mexanizmlari muhim o'rin egallaydi.



Amaldagi grant tizimida grant arizalarini ko'rib chiqish, monitoring va hisobot yuritish jarayonlarini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Xususan, ekspert baholash jarayonlarida obyektivlikni kuchaytirish, monitoring tizimini kengroq raqamlashtirish hamda mablag'lar sarfini real vaqt rejimida nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirish grant siyosati samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, grant boshqaruvi tizimini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, uning shaffofligi va natijadorligini kuchaytirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot obyekti

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni davlat grantlari asosida moliyalashtirish tizimi tanlangan.

Tadqiqot predmeti

Tadqiqot predmeti grant ajratish, baholash, monitoring hamda hisobot yuritish jarayonlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish mexanizmlaridan iborat.

Tadqiqot maqsadi

Tadqiqotning maqsadi davlat grantlari asosida NNT loyihalarini moliyalashtirish tizimida raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali uning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- davlat grantlari tizimining amaldagi holatini tahlil qilish;
- grant ajratish va monitoring jarayonlaridagi mavjud muammolarni aniqlash;
- elektron grant tizimining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish;
- grant tizimida raqamlashtirishning iqtisodiy va institutsional samaradorligini baholash;
- ekonometrik tahlil asosida grant mablag'lari va moliyalashtirilgan loyihalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;
- grant boshqaruvini raqamlashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy adabiyotlarda davlat grantlari va NNTlarni moliyalashtirish masalalari asosan davlat boshqaruvida shaffoflik, natijadorlik hamda "public value" konsepsiyasi doirasida o'rganilgan. J. Stiglitz tadqiqotlarida axborot assimetriyasini kamaytirish orqali grant tizimlarida ochiqlik va samaradorlikni oshirish muhimligi asoslangan [12]. E. Ostrom esa fuqarolik institutlari ishtirokini resurslarni samarali boshqarishning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatgan [13]. R. Heeks va M. Dunleavy ishlarida elektron hukumat tizimlari byurokratik to'siqlarni kamaytirishi hamda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [14–15].

MDH va mahalliy adabiyotlarda A.V. Vahobov, Q.X. Abdurahmonov hamda Sh.X. Xajibakiyev davlat moliyasi va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish masalalarini chuqur tahlil qilgan [7–8]. O'zbekiston olimlari A.Sh. Bekmurodov, S.T. Xudoyqulov va F.B. Rasulov esa raqamli boshqaruv, davlat grantlari tizimida shaffoflikni ta'minlash hamda elektron hukumat mexanizmlarini rivojlantirish yo'nalishlarini o'rgangan [9–11].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarda grant jarayonlarini yanada takomillashtirishga oid istiqbolli yo'nalishlar mavjud. Xususan, grant jarayonlarini yagona elektron platforma asosida kompleks modellashtirish, sun'iy intellekt yordamida avtomatik baholash tizimlarini joriy etish hamda grant samaradorligini ekonometrik yondashuv asosida kompleks baholash masalalari ilmiy jihatdan yanada chuqurroq tadqiq etishni talab qiladi.

Mazkur maqola aynan ushbu istiqbolli yo'nalishlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, grant tizimini raqamli platforma asosida boshqarish, monitoring jarayonlarini avtomatlashtirish hamda ekonometrik tahlilni integratsiya qilish orqali mavzuning ilmiy-amaliy jihatlarini kengaytiradi va mavjud tadqiqotlarni boyitadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda ekonometrik regressiya usullaridan foydalanildi. 2008–2024-yillar bo'yicha hududiy statistik ma'lumotlar asosida grant mablag'lari hajmi va moliyalashtirilgan loyihalar soni o'rtasidagi bog'liqlik baholandi. Tadqiqot jarayonida ekonometrik regressiya modeli qo'llanildi.

$$Projects = \beta_0 + \beta_1 Budget + \beta_2 Participants + \varepsilon$$

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat grantlari tizimining institutsional holati

O'zbekistonda davlat grantlari tizimining asosiy institutsional mexanizmi sifatida Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyat yuritadi. Mazkur fond tomonidan NNTlar,



fuqarolik jamiyati institutlari hamda ijtimoiy yo'naltirilgan tashabbuslar grantlar, subsidiyalar va davlat ijtimoiy buyurtmalari orqali moliyalashtiriladi.

So'nggi yillarda grant mablag'lari hajmi sezilarli darajada oshib bormoqda. Jumladan, 2024-yilda ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun 1 trillion so'mdan ortiq mablag' ajratilgan [5]. Ushbu mablag'lar asosan ekologiya, yoshlar va ayollarni qo'llab-quvvatlash, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun imkoniyatlar yaratish hamda ta'lim va madaniyat sohasidagi tashabbuslarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Amaldagi grant tizimi grant arizalarini ko'rib chiqish, monitoring va hisobot yuritish jarayonlarini yanada takomillashtirish imkoniyatlariga ega. Xususan:

- grant arizalarini ko'rib chiqish jarayonlarini soddalashtirish va optimallashtirish;
- ekspertiza jarayonida obyektiv baholash mexanizmlarini kuchaytirish;
- hisobotlarni avtomatlashtirilgan shaklda yuritish tizimini rivojlantirish;
- monitoring tizimini kengroq raqamlashtirish;
- mablag'lar sarfini real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirish.

Mazkur yo'nalishlarni takomillashtirish grant mablag'larining ijtimoiy qaytirmoq darajasini oshirish, davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini kuchaytirish hamda grant siyosatining ochiqligi va natijadorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat boshqaruvi tizimining barcha yo'nalishlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Xususan, ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni davlat grantlari asosida moliyalashtirish tizimini elektronlashtirish davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, grant ajratish jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashning muhim omili hisoblanadi.

Amaldagi grant tizimida hujjatlar aylanishining ko'p bosqichli va qisman qog'oz shaklida yuritilishi, ekspert baholash jarayonlarini yanada takomillashtirish zarurati hamda hisobotlarni avtomatlashtirish imkoniyatlarining kengayib borayotgani grant boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun qo'shimcha sharoit yaratmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish vaqti va resurslardan samarali foydalanish, ma'lumotlar almashinuvini optimallashtirish hamda grant jarayonlarining tezkorligini oshirishga xizmat qiladi.

Grant jarayonlarini elektronlashtirish ushbu yo'nalishlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Yagona elektron grant platformasini joriy etish orqali arizalarni onlayn qabul qilish, ularni avtomatik ro'yxatdan o'tkazish, sun'iy intellekt asosida dastlabki baholash hamda monitoring qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa inson omilini kamaytirib, grant tanlovlarining obyektivligi, ochiqligi va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, grant mablag'larining sarflanishini real vaqt rejimida kuzatish, elektron hisobotlarni avtomatik shakllantirish hamda jamoatchilik uchun ochiq ma'lumotlar bazasini yaratish davlat grantlari tizimining ochiqligi va ishonchligini oshiradi. Ayniqsa, blokcheyn texnologiyalari va elektron raqamli imzo tizimlaridan foydalanish grant mablag'lari harakatining xavfsizligi va o'zgarmasligini ta'minlab, korrupsion xavflarni minimallashtirish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. Davlat grantlari tizimini elektronlashtirish yo'nalishlari va ularning kutilayotgan natijalari¹

№	Elektronlashtirish yo'nalishi	Amalga oshirish mazmuni	Kutilayotgan natija
1	Onlayn grant platformasi	Arizalarni elektron qabul qilish	Qog'ozsiz hujjat aylanishini ta'minlash
2	Avtomatik baholash moduli	Sun'iy intellekt asosida dastlabki ekspertiza	Subyektivlikni kamaytirish
3	Ochiq ma'lumotlar portali	Grant ma'lumotlarini e'lon qilish	Shaffoflikni oshirish
4	Monitoring paneli	Real vaqt rejimidagi monitoring	Tezkor nazoratni kuchaytirish
5	Raqamli moliyaviy nazorat	Kriptografik qayd tizimi	Korrupsion xavflarni kamaytirish

Bundan tashqari, grant boshqaruvinu raqamlashtirish davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichini shakllantiradi. Elektron platformalar orqali nodavlat notijorat tashkilotlari grant tanlovlarida masofadan turib ishtirok etish, loyihalar ijrosi bo'yicha tezkor ma'lumot almashish hamda monitoring natijalarini onlayn kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa hududiy tengsizliklarni kamaytirish, grantlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ijtimoiy tashabbuslarning qamrovini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli grant jarayonlarini to'liq elektronlashtirish nafaqat texnologik yangilanish, balki davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik institutsional islohot sifatida baholanishi mumkin.

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Elektron grant tizimining tahliliy modeli

Elektron grant boshqaruv tizimi quyidagi asosiy bosqichlardan tashkil topadi:

1-bosqich. Arizalarni qabul qilish

NNTlar yagona elektron platforma orqali ro'yxatdan o'tadi va loyihalarni elektron shaklda taqdim etadi. Arizalar elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi hamda tizim tomonidan avtomatik identifikatsiya qilinadi.

2-bosqich. Baholash va tanlov

Loyihalar sun'iy intellekt algoritmlari yordamida dastlabki tahlildan o'tkaziladi. Tizim loyiha innovatsionligi, budjetning asoslanganligi hamda ijtimoiy ta'sir ko'rsatkichlarini avtomatik ravishda baholaydi.

3-bosqich. Moliyaviy boshqaruv

Grant mablag'larining ajratilishi va sarflanishi raqamli monitoring asosida amalga oshiriladi. Har bir moliyaviy operatsiya elektron tarzda qayd etiladi.

4-bosqich. Monitoring va natijadorlikni baholash

Loyihalar samaradorligi maxsus indikatorlar asosida real vaqt rejimida monitoring qilinadi. Ushbu jarayonda SROI ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

5-bosqich. Ochiqlik va jamoatchilik nazorati

Grant loyihalari bo'yicha barcha ma'lumotlar ochiq platformada e'lon qilinadi. Jamoatchilik onlayn tarzda fikr bildirish va baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ekonometrik tahlil natijalari

Tadqiqotda davlat grantlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida ko'p omilli regressiya modeli qo'llanildi.

Model quyidagi ko'rinishda shakllantirildi:

$$Projects = \beta_0 + \beta_1 Budget + \beta_2 Participants + \varepsilon$$

Tahlil 2008–2024-yillar davomida hududlar kesimidagi ma'lumotlar asosida amalga oshirildi.

Natijada quyidagi regressiya tenglamasi olindi:


$$Projects = 7.63 + 0.013 \cdot Budget + 0.0013 \cdot Participants$$

Modelning determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0.28$ ni tashkil etdi. Bu tanlangan omillar moliyalashtirilgan loyihalar sonining 28 foizini tushuntirib berishini anglatadi.

Tahlil natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- budjet mablag'lari hajmining oshishi loyihalar sonining ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- ishtirokchilar sonining ta'siri statistik jihatdan ahamiyatsiz ekanligi aniqlandi;
- asosiy cheklovchi omil sifatida moliyaviy resurslar hajmi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Vizual tasdiq:



1-rasm. Ajratilgan grant mablag'lari va moliyalashtirilgan loyihalar soni o'rtasidagi bog'liqlik dinamikasi²

2 Muallif hisob-kitoblari asosida tuzildi



Mazkur natijalar grant siyosatida resurslarni samarali taqsimlash hamda monitoring tizimini kuchaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari va amaliy ahamiyati

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan raqamli grant boshqaruv mexanizmlarining amaliyotga joriy etilishi natijasida grant tizimining samaradorligi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Xususan, grant jarayonlarini raqamlashtirish va yagona elektron platformani joriy etish orqali tizimning ochiqlik darajasi 22 foizga oshdi. Bu grant ajratish jarayonlarida shaffoflikning kuchayganini, ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlari kengayganini hamda jamoatchilik nazorati uchun qulay sharoit yaratilganini ko'rsatadi.

Shuningdek, NNTlarning grant tanlovlaridagi ishtiroki 30 foizga oshgani fuqarolik jamiyati institutlari uchun teng imkoniyatlar kengayganini anglatadi. Elektron ariza topshirish tizimi va raqamli platformalar hududiy cheklovlarni kamaytirib, grant jarayonlarida ishtirok etishni sezilarli darajada yengillashtirdi. Natijada grant siyosatining inklyuzivligi va qamrovi kengaydi.

Tadqiqot natijalari grant loyihalarining ijtimoiy ta'sir ko'rsatkichlari 25 foizga oshganini ham ko'rsatdi. Bu amalga oshirilgan loyihalarning jamiyat uchun amaliy foydasi va samaradorligi ortganini anglatadi. Grant dasturlarining umumiy samaradorligi esa o'rtacha 20 foizga yaxshilangani raqamli boshqaruv tizimining kompleks ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, grant yo'nalishlarini shakllantirishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlovchi raqamli platforma ishlab chiqildi. Ushbu platforma orqali NNTlar va fuqarolar grant mavzulari bo'yicha takliflar kiritish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa grant siyosatini shakllantirishda "pastdan yuqoriga" yondashuvni kuchaytirib, davlat dasturlarining ijtimoiy ehtiyojlarga mosligini oshirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamli grant boshqaruv mexanizmlarini joriy etish grant tizimining ochiqligi, samaradorligi hamda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini sezilarli darajada kuchaytirishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ahamiyatga molik dastur va loyihalarni davlat grantlari asosida moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bugungi kunda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarining jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishdagi roli ortib borayotgan sharoitda grant siyosatini zamonaviy va shaffof mexanizmlar asosida tashkil etish zarurati yanada kuchaymoqda. Tadqiqot davomida amaldagi grant tizimining institutsional holati, moliyalashtirish mexanizmlari hamda ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar kompleks tarzda tahlil qilindi.

Tahlillar natijasida grant ajratish va monitoring qilish jarayonlarini yanada takomillashtirish uchun muhim imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, grant tanlovlarida hujjatlar aylanishini soddalashtirish, ekspert baholashida obyektivlikni kuchaytirish, monitoring va hisobot tizimlarini kengroq avtomatlashtirish grant mablag'larining samarali va manzilli taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, grant loyihalarining ijtimoiy natijadorligini baholash mexanizmlarini rivojlantirish davlat mablag'larining ijtimoiy qaytimi (SROI) darajasini yanada oshirish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotda grant boshqaruvi tizimini to'liq elektronlashtirishning ilmiy-amaliy asoslari ishlab chiqildi hamda uning ustun jihatlari asoslab berildi. Taklif etilgan yagona markazlashgan elektron grant platformasi grant jarayonining barcha bosqichlarini — ariza topshirish, ekspertiza, baholash, moliyalashtirish, monitoring hamda hisobotlarni yagona raqamli muhitda boshqarish imkonini beradi. Mazkur tizim orqali grant boshqaruvida "raqamli shaffoflik" tamoyilini joriy etish, barcha operatsiyalarni elektron iz asosida qayd etish hamda davlat mablag'larining maqsadli sarflanishini real vaqt rejimida samarali nazorat qilish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ekonometrik model natijalari davlat budjeti mablag'lari hajmi bilan moliyalashtirilgan loyihalar soni o'rtasida barqaror ijobiy bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Regression tahlil natijalariga ko'ra, grantlar uchun ajratiladigan moliyaviy resurslarning oshishi loyihalar sonining ko'payishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, tanlovda ishtirok etuvchi NNTlar sonining ortishi grant tizimida sifat, innovatsion yondashuv hamda ijtimoiy ta'sir mezonlariga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqotda jamoatchilik ishtirokiga asoslangan raqamli grant boshqaruvi modeli ishlab chiqildi. Mazkur model grant yo'nalishlarini shakllantirishda fuqarolik jamiyati institutlari, ekspertlar hamda keng jamoatchilikning bevosita ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Amaliy natijalar ushbu mexanizm grant siyosatining ochiqligini oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyatining davlat boshqaruvidagi rolini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan indikatorlar tizimi grant loyihalarining ijtimoiy dolzarbligi, manfaatdor aholiga ta'siri, barqarorligi hamda natijadorligini aniq mezonlar asosida baholash imkonini berdi. Ushbu indikatorlarning amaliyotga joriy etilishi grant dasturlarining umumiy samaradorligini oshirish,



mablag'larning manzilli taqsimlanishini ta'minlash hamda moliyaviy boshqaruvning ishonchligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda taklif etilgan ilmiy-amaliy yondashuvlar davlat grantlari tizimini modernizatsiya qilishning muhim konseptual asoslarini shakllantiradi. Elektron grant boshqaruv tizimini joriy etish orqali davlat boshqaruvi jarayonlarining shaffofligi va tezkorligi oshadi, inson omili optimallashtiriladi, monitoring hamda audit mexanizmlari takomillashadi, shuningdek, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro ishonch yanada mustahkamlanadi. Shu bilan birga, mazkur tizim davlat mablag'larining ijtimoiy samaradorligini oshirish, innovatsion ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda fuqarolik jamiyatining institutsional rivojlanishini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur ilmiy natijalar va amaliy tavsiyalarni respublika miqyosida keng joriy etish O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, davlat grantlari siyosatini takomillashtirish hamda davlat boshqaruvining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, kelgusida grant boshqaruv tizimida sun'iy intellekt texnologiyalari, blokcheyn asosidagi moliyaviy monitoring hamda ochiq ma'lumotlar platformalaridan keng foydalanish davlat grantlari samaradorligini yanada oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yildagi PF-124-son Farmoni. Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent, 2024. <https://lex.uz/ru/docs/-7083841>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yildagi PF-6181-son Farmoni. 2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. – Toshkent, 2021. <https://lex.uz/uz/docs/-5319756>
3. O'zbekiston Respublikasi. Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida Qonun. – Toshkent, 1999. <https://lex.uz/uz/docs/-11360>
4. O'zbekiston Respublikasi. Ijtimoiy sheriklik to'g'risida Qonun // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2014. – № 39. <https://lex.uz/uz/docs/-2468214>
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi. Yillik hisobot. – Toshkent, 2024.
6. Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
7. Abdurahmonov Q. X. Davlat boshqaruvi va raqamli iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
8. Vahobov A. V., Xajibakiyev Sh. X. Davlat budjeti va ijtimoiy moliyalashtirish tizimi. – Toshkent: Moliya, 2011.
9. Bekmurodov A. Sh. Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2023. – № 5. – B. 44–52.
10. Xudoyqulov S. T. Davlat grantlari tizimida shaffoflikni ta'minlashning zamonaviy mexanizmlari // Moliya va bank ishi. – 2024. – № 2. – B. 71–79.
11. Rasulov F. B. Raqamli boshqaruv sharoitida davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish istiqbollari // Davlat va jamiyat boshqaruvi. – 2023. – № 4. – B. 88–96.
12. Joseph E. Stiglitz Economics of the Public Sector. – New York: W. W. Norton & Company, 2017.
13. Elinor Ostrom Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.
14. Richard Heeks Information Systems in Developing Countries. – Manchester: Information Systems for Developing Countries Research Group, 2002.
15. Dunleavy P., Margetts H., Bastow S., Tinkler J. Digital Era Governance: IT Corporations, the State, and E-Government. – Oxford: Oxford University Press, 2006.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>